




QASHQADARYO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

**QASHQADARYO  
VILOYATIDA  
SOG‘LIQNI SAQLASH  
SOHASINING  
ASOSIY STATISTIK  
KO‘RSATKICHLARI**  
*(2024- yil 1- yanvar holatiga)*






### **Statistik ko'rsatkichlar**

- ❖ **Sog'liqni saqlash statistikasi** – sog'liqni saqlash tizimi rivojlanishining miqdoriy xususiyatlarini (sog'liqni saqlash muassasalari tarmog'i, ularning holati va jihozlari, tibbiyot xodimlari), butun aholi va uning alohida kontingentlarining sog'lig'i holatini o'rganadigan statistika bo'limi; umumiy odamlar va uning alohida guruhlari orasida kasallanishning tarqalishi, tuzilishi va chastotasi.
- ❖ **Tibbiyot muassasalari** – tarmog'iga barcha mulkchilik shaklidagi shifoxona va ambulatoriya, shoshilinch tibbiy yordam, ona va bola salomatligini muhofaza qilish kiradi.
- ❖ **Shifoxona o'rinlari** – statsionar davolash-profilaktika muassasa-laridagi (kasalxona, tug'ruqxona, shifoxona, ixtisoslashtirilgan dispanser va boshqalar) ma'lum hudud aholisiga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan yotoqxonalar majmuasi. Bemorlarni tibbiy ixtisoslashtirish uchun barcha yotoq va yotoqxonalar bilan ta'minlash, qoida tariqasida, 10 ming kishiga hisoblab chiqiladi.
- ❖ **Shifokorlarning umumiy soniga yil oxirida tibbiyot, sanitariya muassasalarida**, ijtimoiy ta'minot muassasalari, tibbiyot ilmiy-tadqiqot institutlari, shuningdek, kadrlar tayyorlash institutlarida va hokazolarda ishlayotgan oliy tibbiy ma'lumotli barcha mutaxassislar kiradi.
- ❖ **Tibbiyot xodimlarining umumiy soniga tibbiy-sanitariya tashkilotlarida**, ijtimoiy ta'minot muassasalarida, maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda, mehribonlik uylarida va boshqalarda ishlaydigan o'rta tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan barcha shaxslar (tish shifokorlaridan tashqari) kiradi.
- ❖ **Joriy yilda kasallik turi bo'yicha birinchi tashxis qo'yilgan bemorlar (holatlar) soni** – kasallanish darajasi bilan tavsiflanadi, uning darajasi birinchi tashxis qo'yilgan bemorlar sonining o'rtacha yillik aholi soniga nisbati bilan belgilanadi.




# QASHQADARYO VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

## Qashqadaryo viloyatida shifoxona muassalari soni\* (tegishli yilning 1 yanvar holatiga, birlik)



Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassalari sonini qo'shgan holda, 2024-yil 1-yanvar holatiga Qashqadaryo viloyatida shifoxona muassalari soni 105 tani tashkil etdi, bu esa 2020-yil 1-yanvarga nisbatan 16 tagacha oshgan.

## Qashqadaryo viloyatida shifoxona muassalarining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi <sup>1)</sup> (2024- yil 1- yanvar holatiga, birlik)



2024- yil 1- yanvar holatiga shifoxona muassalari sonining eng katta qismi Qarshi shahriga (38 ta), Kitob tumaniga (8 ta ) to'g'ri kelgan bo'lsa, boshqa shahar va tumanlarga nisbatan eng past ko'rsatkich Muborak (2 ta) hamda Kasbi (1 ta) tumanlarida kuzatilgan.


\*Shahar va tumanar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda



# QASHQADARYO VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

## Qashqadaryo viloyatida, mulkchilik shakli bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari soni


(tegishli yilning 1 yanvar holatiga, birlik)



Qashqadaryo viloyatida, mulkchilik shakli bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari soni 2024-yilda 32 tani tashkil etdi, bu esa 2019-yil 1- yanvarga nisbatan 8 taga (ya'ni 33,3 foizga) oshgan.

## Qashqadaryo viloyatida, mulkchilik shakli bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalarining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi

(2024 yil 1- yanvar holatiga, birlik)




2024-yil 1-yanvar holatiga hududlar kesimida eng ko'p mulkchilik shakli bo'yicha, kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari soni Qarshi shahrida (14 ta), Shahrisabz shahri (4 ta) va Kitob tumani (4 ta) da qayd etilgan.



## Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mulkchilik shaklidagi ambulatoriya-poliklinikalari soni\*


(tegishli yilning 1 yanvar holatiga, birlik)



Qashqadaryo viloyatda ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni yildan-yilga barqaror o'sib bormoqda. Ularning o'sishi 2019-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda 25,1% ni tashkil etdi.

## Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mulkchilik shaklidagi ambulatoriya-poliklinikalarining shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi\*

(2024-yil 1-yanvar holatiga, birlik)



2024-yil 1-yanvar holatiga hududlar kesimida eng ko'p Qashqadaryo viloyatida ambulatoriya - poliklinika muassasalari soni Qarshi sh. (154 ta), Yakkabog' (57 ta) tumanida qayd etilgan, boshqa shahar va tumanlar bilan solishtirganda, eng past ko'rsatkichlar Muborak (12 ta) tumanida kuzatilgan.


\*Shahar va tumanlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda



# QASHQADARYO VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

## Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan ambulator poliklinikalar soni


(tegishli yilning 1 yanvar holatiga, birlik)



Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan ambulator poliklinikalar soni 2024-yil 1-yanvar holatiga 399 tani tashkil etdi.

## Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan ambulator poliklinikalarning shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi

(2024- yil 1- yanvar holatiga, birlik)




2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra Qashqadaryo viloyatida eng ko'p ambulatoriya poliklinikalari Qarshi shahrida (123) va Shahrisabz shahriida (51) kichik biznes subyektlari sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.



# QASHQADARYO VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

## Qashqadaryo viloyati shifoxona muassasalarining bemor o'rinlari soni\*


(tegishli yilning 1 yanvar holatiga, ming birlik)



Aholi uchun shifoxona muassasalarida bemor o'rinlar soni barqaror o'sib bormoqda. 2024- yil 1- yanvar holatiga bu ko'rsatkich 11,5 ming o'rinni tashkil qildi.

## Qashqadaryo viloyati shifoxona muassasalarining bemor o'rinlari soni shahar va tumanlar kesimida\*

(2024- yil 1- yanvar holatiga, ming birlik)




2024- yil 1- yanvar holatiga shifoxona muassasalarida eng ko'p o'rinlar soni Qarshi sh. 4,4 ming o'rin, Kitob tumanida 1,1 ming o'rin kuzatilgan.

\*Shahar va tumanlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda




### **Barcha mutaxassisliklar bo'yicha vrachlar soni\*** *(tegishli yilning 1 yanvar holatiga, ming kishi)*



2020-yil 1-yanvardan 2024-yilgacha Qashqadaryo viloyatida shifokorlar soni 6,1 ming kishidan 6,9 ming kishiga ko'paydi.

### **Barcha mutaxassisliklar bo'yicha vrachlar soni shahar va tumanlar kesimida\*** *(2024- yil 1- yanvar holatiga, ming kishi)*




2024-yil 1-yanvar holatiga shahar va tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan vrachlarning eng yuqori soni Qarshi shahrida (3,0 ming kishi), Kitob tumanida (0,5 ming kishi) ro'yxatga olingan. Mirishkor tumanida 0,1 ming shifokor, Muborak va Nishon tumanlarida 0,1 ming shifokorlar mavjud .

\*Shahar va tumanlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda






**Qashqadaryo viloyati bo'yicha, mulkchilik shakli kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan vrachlar soni**  
*(tegishli yilning 1 yanvar holatiga, ming kishi)*



Kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan vrachlar soni Qashqadaryo viloyatida 2019- yildan 2024 - yilgacha 0,6 mingdan 1,1 mingga oshgan.

**Qashqadaryo viloyati bo'yicha, mulkchilik shakli kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan vrachlar soni shahar va tumanlar kesimida**

*(2024- yil 1- yanvar holatiga, kishi)*




Kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan vrachlarning eng yuqori soni Qarshi shahrida 409 kishi, Kitob tumanida - 139 kishini hamda Shahrisabz shahrida - 132 kishini tashkil etdi.




# QASHQADARYO VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

## Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan vrachlarning gender bo'yicha taqsimlanishi (tegishli yilning 1-yanvar holatiga, ming kishi)



## Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan vrachlarning gender bo'yicha taqsimlanishi \* (tegishli yilning 1-yanvar holatiga, kishi)




■ Ayollar

■ Erkaklar




# QASHQADARYO VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

## Qashqadaryo viloyatida o'rta tibbiyot xodimlari soni\* (tegishli yilning 1- yanvar holatiga, ming kishi)



Qashqadaryo viloyatida o'rta tibbiyot xodimlari soni 2019 - yilda 37,8 ming kishidan 2024 - yilda 39,1 ming kishiga ko'paydi. Ushbu davrda o'sish 1,3 ming kishini tashkil etdi.

## Shahar va tumanlar bo'yicha o'rta tibbiyot xodimlari soni\* (2024- yil 1- yanvar holatiga, ming kishi)




2024- yil 1 yanvar holatiga Qashqadaryo viloyatida eng ko'p faoliyat yuritayotgan o'rta tibbiyot xodimlari soni Qarshi shahrida 12,2 ming kishi, Qarshi tumanida 2,6 ming kishini tashkil etmoqda.

\*Shahar va tumanlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda




# QASHQADARYO VILOYATIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

## Qashqadaryo viloyatida aholining kasalliklarga chalinishi (tegishli yilning 1- yanvar holatiga, 100 000 aholiga nisbatan)



## Qashqadaryo viloyatida aholining kasalliklarga chalinishi hududlar bo'yicha

(2024- yil 1- yanvar holatiga, 100 000 aholiga nisbatan)



Qashqadaryo viloyatida aholining kasallanish darajasi shahar va tumanlar bo'yicha sezilarli darajada farq qiladi. Shunday qilib, uning eng yuqori ko'rsatkichlari Shahrisabz shahrida qayd etilgan (100 ming aholiga 108122). Shu bilan birga, Dehqonobod tumaniida eng kam kasallik qayd etilgan (28261).


Izoh: Toshkent shahrida joylashgan Markaziy tibbiyot muassasalarining soni va respublikaning barcha hududlaridan poytaxtga davolanish uchun kelgan bemorlarning ko'pligi sababli aholining birlamchi kasalliklari ko'rsatkichi 100 ming kishidan oshishi mumkin.



# QASHQADARYO VILOYATIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI


## Qashqadaryo viloyatida shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni\*

(tegishli yilning 1-yanvar holatiga, ming kishi)



## Shahar va tumanlar bo'yicha shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni\*

(2024- yil 1-yanvar holatiga, ming kishi)




Bemorlarning aksariyati Qarshi shahar (236 ming kishi), Kitob (52 ming kishi) tumanida va Shahrisabz (46 ming kishi) shahrida shifoxonalarda davolangan. Eng kam ko'rsatkichlar Mirishkor (9 ming kishi) va Yakkabog' (10 ming kishi) tumanlarida qayd etilgan.

\* Shahar va tumanlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda



# QASHQADARYO VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

## Qashqadaryo viloyatida kasalliklarning asosiy sinflari bo'yicha aholining kasalliklarga chalinishi (100 000 aholiga)



<sup>1)</sup> Perinatal davrdagi bolalar

<sup>2)</sup> 15-49 yoshdagi ayollar



**Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:  
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi**



**Qashqadaryo viloyati  
statistika boshqarmasi**



**e-mail:qashstat.uz**



**Manzil: Qarshi sh., Mustaqillik,  
2-uy**



**www.qashstat.uz**



**Tel.: +99875 221-09-71**



**facebook.com/qashstat.uz**